

ISHLAB CHIQRISH HISOBINING IQTISODIY MOHIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20181406>

Rejabaliyev Sarvarbek

Andijon davlat texnika instituti

“Buxgalteriya hisobi va audit” yo‘nalishi 4-kurs talabasi

ORCID: 0009-0002-3252-0361

Annotatsiya

Mazkur maqolada ishlab chiqarish hisobining iqtisodiy mohiyati, korxonada faoliyatidagi ahamiyati hamda ishlab chiqarish hisobini avtomatlashtirishning zarurati yoritilgan. Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish, mahsulot tannarxini shakllantirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi ishlab chiqarish hisobining o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy ERP tizimlari, jumladan, 1C, SAP va Oracle ERP dasturlarining korxonada boshqaruvidagi ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Ishlab chiqarish hisobini avtomatlashtirishning afzalliklari, xususan, mehnat unumdorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va boshqaruv samaradorligini kuchaytirish masalalari yoritilgan. Bundan tashqari, avtomatlashtirish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ham tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar

ERP tizimlari, mahsulot tannarxi, boshqaruv hisobi, ishlab chiqarish xarajatlari, 1C, SAP, Oracle ERP, iqtisodiy samaradorlik, moliyaviy hisobot.

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining asosiy maqsadi foyda olish, iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash va bozorda raqobatbardosh faoliyat yuritishdan iboratdir. Bunday sharoitda korxonada faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan ishlab chiqarish jarayonini qanday tashkil etilganiga, resurslardan qay darajada oqilona foydalanilayotganiga hamda xarajatlarni ustidan nazoratning qay darajada yo‘lga qo‘yilganiga bog‘liq bo‘ladi. Aynan shu jarayonlarda ishlab chiqarish hisobi muhim o‘rin egallaydi. Ishlab chiqarish hisobi korxonada boshqaruv tizimining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq barcha xarajatlarni hisobga olish, nazorat qilish, tahlil qilish va boshqarish vazifalarini bajaradi [1]. Ishlab chiqarish hisobi korxonada mahsulot yaratish jarayonida sarflanadigan moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni pul shaklida ifodalab beradi. Mazkur tizim orqali ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan xomashyo, materiallar, yoqilg‘i, elektr energiyasi, asosiy vositalar eskirishi,

ishchilarga to'langan ish haqi va boshqa xarajatlar hisobga olinadi. Ushbu xarajatlarning yig'indisi mahsulot tannarxini shakllantiradi. Shu sababli ishlab chiqarish hisobi mahsulot tannarxini aniqlashning asosiy manbasi hisoblanadi. Mahsulot tannarxi korxonada faoliyatining eng muhim iqtisodiy ko'rsatkichlaridan biridir [2]. Chunki aynan tannarx orqali mahsulot ishlab chiqarishga qancha mablag' sarflangani aniqlanadi. Agar mahsulot tannarxi yuqori bo'lsa, korxonaning foydasi kamayadi va bozordagi raqobatbardoshligi pasayadi. Aksincha, tannarxni pasaytirish orqali korxonada foyda miqdorini oshirishi va mahsulot narxini bozordagi talabga mos ravishda belgilashi mumkin. Shu sababli ishlab chiqarish hisobi korxonaning moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarish hisobining iqtisodiy mohiyati, avvalo, korxonada resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlashida namoyon bo'ladi. Har bir korxonada ishlab chiqarish jarayonida moddiy resurslar, mehnat resurslari va asosiy vositalardan foydalaniladi. Agar ushbu resurslar ustidan nazorat yetarli darajada olib borilmasa, ortiqcha xarajatlar yuzaga keladi va korxonada zarar ko'rishi mumkin. Ishlab chiqarish hisobi esa resurslar harakatini doimiy ravishda nazorat qilish, ularning sarfini me'yoralashtirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish hisobi boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun muhim axborot manbai hisoblanadi. Korxonada rahbariyati ishlab chiqarish hisobi ma'lumotlari asosida ishlab chiqarish hajmini rejalashtiradi, xarajatlarni optimallashtirish choralarini ishlab chiqadi, mahsulot narxini belgilaydi va foyda miqdorini prognoz qiladi.

Ishlab chiqarish hisobini avtomatlashtirish zarurati. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida korxonalar faoliyati tobora murakkablashib bormoqda. Ishlab chiqarish hajmlarining ortishi, xo'jalik operatsiyalarining ko'payishi, axborot oqimining kengayishi hamda bozordagi raqobatning kuchayishi korxonalardan tezkor va aniq boshqaruvni talab etmoqda. Bunday sharoitda an'anaviy qo'lda yuritiladigan hisob tizimi zamon talablariga to'liq javob bera olmay qolmoqda. Shu sababli korxonalarda ishlab chiqarish hisobini avtomatlashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Qo'lda yuritiladigan hisob tizimi ko'plab kamchiliklarga ega. Eng avvalo, inson omili tufayli hisob-kitoblarda xatolar yuzaga kelishi ehtimoli yuqori bo'ladi. Hujjatlarni noto'g'ri rasmiylashtirish, ma'lumotlarni xato kiritish yoki ayrim xarajatlarni noto'g'ri guruhlash mahsulot tannarxining noto'g'ri shakllanishiga olib kelishi mumkin. Bu esa korxonaning moliyaviy natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, qo'lda yuritiladigan tizimda ma'lumotlarni qayta ishlash ko'p vaqt talab qiladi. Natijada boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni sekinlashadi va korxonada bozor sharoitlariga tez moslasha

olmaydi. Hozirgi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida tezkorlik muhim omillardan biri hisoblanadi. Korxonalar rahbariyati ishlab chiqarish xarajatlari, mahsulot tannarxi, foyda miqdori va resurslar harakati to'g'risida o'z vaqtida aniq ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Agar axborot kechikib shakllansa, rahbariyat noto'g'ri qaror qabul qilishi yoki iqtisodiy imkoniyatlarni boy berishi mumkin. Shu sababli ishlab chiqarish hisobini avtomatlashtirish boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Ishlab chiqarish hisobini avtomatlashtirish orqali korxonalar xarajatlarni real vaqt rejimida nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Zamonaviy dasturiy tizimlar yordamida ishlab chiqarish bilan bog'liq barcha operatsiyalar avtomatik ravishda qayd etiladi va yagona ma'lumotlar bazasida saqlanadi. Bu esa xarajatlarni doimiy nazorat qilish, ortiqcha sarflarni aniqlash va resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida mahsulot tannarxi tezkor va aniq hisoblanadi. Dasturiy vositalar ishlab chiqarish xarajatlarini avtomatik ravishda guruhlaydi, ularni mahsulot turlari bo'yicha taqsimlaydi hamda tannarxni shakllantiradi [3]. Natijada korxonalar rahbariyati mahsulot ishlab chiqarishga qancha mablag' sarflanayotganini aniq ko'ra oladi. Bu esa narx siyosatini to'g'ri belgilash, xarajatlarni kamaytirish va foydani oshirish imkonini yaratadi.

Zamonaviy ERP tizimlari va ularning ahamiyati. Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi korxonalarda boshqaruv tizimini zamonaviylashtirish zaruratini kuchaytirmoqda. Ayniqsa, ishlab chiqarish jarayonlarining murakkablashuvi, axborot oqimining kengayishi va bozordagi raqobatning ortishi korxonalaridan tezkor hamda aniq boshqaruv tizimini talab etmoqda. Bunday sharoitda korxonalarda ishlab chiqarish hisobini samarali tashkil etish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirishda ERP tizimlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlari – bu korxonaning barcha biznes jarayonlarini yagona axborot platformasida boshqarishga mo'ljallangan zamonaviy dasturiy tizimlardir. ERP tizimlari yordamida ishlab chiqarish, moliya, ombor, logistika, marketing, sotuv, kadrlar va boshqa faoliyat yo'nalishlari o'zaro integratsiyalashgan holda boshqariladi [4]. Ushbu tizimlarning asosiy maqsadi korxonalar resurslaridan samarali foydalanish, boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish hamda tezkor va aniq axborot bilan ta'minlashdan iboratdir. Zamonaviy ERP tizimlari korxonalarda ishlab chiqarish hisobini avtomatlashtirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Chunki ishlab chiqarish bilan bog'liq barcha operatsiyalar yagona tizimda aks ettiriladi va avtomatik ravishda qayta ishlanadi. Natijada korxonalar rahbariyati ishlab chiqarish xarajatlari, mahsulot tannarxi, ombordagi qoldiqlar va moliyaviy natijalar haqida

real vaqt rejimida ma'lumot olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bugungi kunda korxonalarda keng qo'llanilayotgan ERP tizimlariga 1C, SAP, Oracle ERP, Microsoft Dynamics, Odoo va boshqa dasturlar kiradi. Ushbu tizimlar turli hajmdagi korxonalar faoliyatiga moslashtirilgan bo'lib, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishda keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Ayniqsa, yirik sanoat korxonalarida SAP va Oracle ERP tizimlari keng qo'llanilsa, o'rta va kichik biznes subyektlarida 1C hamda Microsoft Dynamics tizimlari ko'proq foydalaniladi. ERP tizimlarining muhim afzalliklaridan biri ishlab chiqarish xarajatlarini avtomatik ravishda hisobga olish imkoniyatidir. Mazkur tizimlar yordamida xomashyo sarfi, ish haqi, amortizatsiya, energiya xarajatlari va boshqa ishlab chiqarish xarajatlari avtomatik tarzda qayd etiladi.

Ishlab chiqarish hisobini avtomatlashtirishning afzalliklari. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi ko'p jihatdan boshqaruv tizimining samaradorligiga bog'liq. Ayniqsa, ishlab chiqarish xarajatlarini aniq hisobga olish, mahsulot tannarxini to'g'ri shakllantirish va moliyaviy natijalarni tezkor tahlil qilish korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli bugungi kunda ishlab chiqarish hisobini avtomatlashtirish korxonalar uchun zarur boshqaruv vositasiga aylanib bormoqda. Avtomatlashtirish korxonalariga iqtisodiy, tashkiliy va texnologik jihatdan ko'plab afzalliklarni beradi. Ishlab chiqarish hisobini avtomatlashtirishning eng muhim afzalliklaridan biri hisob jarayonining aniqligini oshirishidir. Qo'lda yuritiladigan hisob tizimida inson omili sababli xatoliklar yuzaga kelishi ehtimoli yuqori bo'ladi. Masalan, ma'lumotlarni noto'g'ri kiritish, hisob-kitoblarda xato qilish yoki ayrim xarajatlarni noto'g'ri guruhlash mahsulot tannarxining noto'g'ri shakllanishiga olib kelishi mumkin. Avtomatlashtirilgan tizimlarda esa hisob-kitoblar dastur asosida avtomatik tarzda amalga oshiriladi. Bu esa xatoliklarni sezilarli darajada kamaytiradi va ma'lumotlarning ishonchliligini oshiradi. Avtomatlashtirishning yana bir muhim afzalligi vaqt tejatlashini ta'minlashidir. Avvallari korxonalarda ko'plab hisob-kitob ishlari qo'lda bajarilganligi sababli katta vaqt talab etilgan. Hujjatlarni qayta ishlash, xarajatlarni guruhlash, hisobotlarni shakllantirish va ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonlari uzoq davom etgan.

Ishlab chiqarish hisobini avtomatlashtirishdagi muammolar. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish hisobini avtomatlashtirish korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida ishlab chiqarish xarajatlarini aniq hisobga olish, mahsulot tannarxini tezkor shakllantirish va boshqaruv qarorlarini samarali qabul qilish imkoniyati yaratiladi. Biroq ishlab chiqarish hisobini avtomatlashtirish

jarayoni bilan bir qatorda bir qator muammolar ham yuzaga keladi. Ushbu muammolar korxonalarda avtomatlashtirish tizimlarini joriy etish va ulardan samarali foydalanishga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin. Ishlab chiqarish hisobini avtomatlashtirishdagi eng asosiy muammolardan biri dasturiy taʼminotni joriy etish xarajatlarining yuqoriligidir. Zamonaviy ERP tizimlari, 1C, SAP, Oracle ERP va boshqa dasturiy vositalarni sotib olish, oʻrnatish va moslashtirish katta moliyaviy mablagʻ talab qiladi. Ayniqsa, kichik va oʻrta korxonalar uchun bunday tizimlarni joriy etish sezilarli xarajatlarni yuzaga keltiradi. Dasturiy taʼminot narxidan tashqari, server uskunalari, kompyuter texnikasi, tarmoq infratuzilmasi va texnik xizmat koʻrsatish bilan bogʻliq xarajatlarni ham mavjud boʻladi. Shu sababli ayrim korxonalar avtomatlashtirish tizimlarini joriy etishni moliyaviy jihatdan qiyin deb hisoblaydi. Bundan tashqari, avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish uzoq vaqt talab qilishi mumkin. Dasturiy tizimlarni korxonada faoliyatiga moslashtirish, maʼlumotlar bazasini shakllantirish va barcha boʻlimlarni yagona tizimga integratsiyalash murakkab jarayon hisoblanadi. Agar ushbu jarayon notoʻgʻri tashkil etilsa, korxonada faoliyatida uzilishlar yuzaga kelishi mumkin. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Ikkinchi muhim muammo malakali mutaxassislarining yetishmasligi bilan bogʻliq. Avtomatlashtirilgan tizimlardan samarali foydalanish uchun xodimlar zamonaviy axborot texnologiyalari, buxgalteriya hisobi va dasturiy tizimlar bilan ishlash boʻyicha yetarli bilim va koʻnikmalarga ega boʻlishi kerak. Aks holda, tizimning barcha imkoniyatlaridan toʻliq foydalanib boʻlmaydi. Ayniqsa, ERP tizimlari murakkab tuzilishga ega boʻlgani sababli ularni boshqarish va sozlash uchun yuqori malakali mutaxassislar talab etiladi.

Xulosa. Ishlab chiqarish hisobini avtomatlashtirish zamonaviy korxonalar faoliyatining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar raqobatbardoshligini taʼminlash, xarajatlarni kamaytirish va boshqaruv samaradorligini oshirish koʻp jihatdan ishlab chiqarish hisobining qay darajada toʻgʻri tashkil etilganiga bogʻliq. Shu sababli ishlab chiqarish hisobini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida yuritish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida ishlab chiqarish hisobining iqtisodiy mohiyati, uning korxonada faoliyatidagi oʻrni hamda mahsulot tannarxini shakllantirishdagi ahamiyati yoritildi. Ishlab chiqarish hisobi korxonada moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni taʼminlash bilan birga, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun muhim axborot manbai boʻlib xizmat qilishi aniqlandi. Shuningdek, ishlab chiqarish hisobini avtomatlashtirishning zarurati va afzalliklari tahlil qilindi. Zamonaviy ERP tizimlari, 1C, SAP, Oracle ERP

va boshqa dasturiy vositalar yordamida ishlab chiqarish xarajatlarini real vaqt rejimida nazorat qilish, mahsulot tannarxini aniq hisoblash hamda moliyaviy hisobotlarni tezkor shakllantirish imkoniyati yaratilishi asoslab berildi. Avtomatlashtirish natijasida mehnat unumdorligi oshishi, inson omili bilan bog'liq xatolar kamayishi va korxonada faoliyatining shaffofligi ta'minlanishi ko'rsatib o'tildi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish hisobini avtomatlashtirish jarayonida yuzaga keladigan muammolar ham tahlil qilindi. Dasturiy ta'minotni joriy etish xarajatlarining yuqoriligi, malakali mutaxassislarning yetishmasligi, axborot xavfsizligi bilan bog'liq xavflar hamda xodimlarning yangi tizimlarga moslashishidagi qiyinchiliklar avtomatlashtirish jarayonining asosiy muammolari sifatida baholandi. Shu bilan birga, ushbu muammolarni zamonaviy texnologiyalar, malaka oshirish tizimi va samarali boshqaruv orqali bartaraf etish mumkinligi asoslandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov A.A. *Buxgalteriya hisobi nazariyasi*. – Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2021. – 256 b.
2. Abdullayev Yo. *Ishlab chiqarish hisobi va tannarx kalkulyatsiyasi*. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2019. – 280 b.
3. SAP. ERP tizimlari bo'yicha rasmiy ma'lumotlar. – [SAP Official Website](#)
4. Oracle. ERP Cloud Solutions Documentation. – [Oracle Official Website](#)